



MULOQOT VA UNGA YONDOSH TUSHUNCHALAR

Usmonova Dona

Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi

Raxmonqulova Maftunaxon Toxirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'naliishi 21-07 guruh
magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada muloqot, uning maqsadi va xamda muloqotning tomonlari atroficha yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ, kontakt distant muloqot.

Kirish

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinci tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi. «Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mayjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir^[1]. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar. Insonning nutq faoliyati inson ongingin barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg'unligidan iborat, ayni vaqtida shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma'no va mazmunga ega. Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga etkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma'lum



tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga etkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. ochiq ko‘ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g‘azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o‘zimizni boshqacha tutamiz...^[2]. Bir mavjudotdan boshqasiga etkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma’lumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo‘lishi mumkin. Odama muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqtalar, malaka va ko‘nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko‘p jismli bo‘lib, ichki mazmuniga ko‘ra turli-tumandir.

Muloqotning maqsadi

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo‘lib boshqa tirik jonzotni ma’lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o‘z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba’zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin. Odama muloqot maqsadlari soni ko‘payadi. Ularga yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va etkazish, ta’lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o‘rnatalishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo‘lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘lsa, odamlarda ular ko‘plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o‘sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Muloqotning tamonlari

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo‘ladi. Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosa atrof-muhiti: boshqa odamlar va o‘z hayotida bog‘liq bo‘ladigan umumiyliliklar bilan o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina savollarga javob berish imkonini beradi. Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g‘oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va shunga o‘xshashlari turlicha bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi almashinuvdan iborat. Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg‘ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog‘liq. Muloqotning konativ (hulq-atvor tomonidan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga etkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishslash va ochib berish vositalari sifatida ta’riflash



mumkin. N. I. Formanovskaya muloqotni turli nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'ladi:

1. Kommunikantlarning makon va zamonga nisbatan holatiga ko'ra:
yuzma-yuz (kontakt) – masofali (distant) muloqot.
2. Vositachilik qiluvchi "apparat"ning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra:
bevosita – bavosita muloqot.
3. Til birliklarining shakllanishiga ko'ra:
og'zaki – yozma muloqot.
4. So'zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko'ra:
Dialogik-monologik muloqot.
5. Muloqot ishtirokchilari miqdoriga ko'ra:
shaxslararo -ommaviy muloqot.
6. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarning o'zaro munosabatiga ko'ra:
(xususiy) norasmiy-rasmiy muloqot.

N.I.Formanovskaya tasnifiga qo'shilgan va ishimiz mohiyatidan kelib chiqqan holda quyida ularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Yuzma-yuz muloqotda kommunikantlar bir-birlarini nafaqat eshitib, balki ko'rib ham turganliklari bois vaziyat, imo-ishora va talaffuzga suyanib ish yuritadilar. Muloqotning bu turi aytimoqchi bo'lgan fikrning xatti-harakat, ko'z va yuzlardagi ifodalar, talaffuz ohanglari yordamida adresatga tezroq va osonroq yetib borishligi bilan ajralib turadi.

Masofali muloqotda makon va zamonga ko'ra kommunikantlar o'rtasida ma'lum bir masofa bo'ladi. Muloqotning bu turiga telefon yoki xat orqali aloqa qilish (fikr almashish)lar kiradi. Bevosita muloqot yuzma-yuz suhabat, ma'ruza kabi masofasiz muloqot bilan bog'liq. Bavosita muloqot turlariga telefon, telegraf, radio, televideonie kabi texnik vositalar, xat, gazeta kabi qog'oz orqali bo'ladigan aloqalar kiradi.

Og'zaki muloqot o'z belgilariga ko'ra masofasiz, bevosita muloqot turiga kirsa, yozma muloqot masofali va bavosita muloqot. Og'zaki muloqot o'z belgilariga ko'ra masofasiz, bevosita muloqot turiga kirsa, yozma muloqot masofali va bavosita muloqot hisoblanadi. Muloqotning har ikki turi o'ziga xos qulaylik (afzallik) va noqulaylik jihatlariga ega. Jumladan, so'zlovchi og'zaki muloqotda o'z fikrini murakkab grammatik qurilishlarsiz turli nolisoniy vositalar yordamida ancha erkin bayon etish imkoniga ega bo'lsa, yozma nutqini tahrir qilish orqali yanglish yozilgan fikrlarni to'g'rilash, matn ta'sirchanligini oshirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Og'zaki va yozma nutq vaziyat, holat bilan bog'liq holda adresatga turlicha ta'sir etadi. Jumladan, o'qituvchi darsda, notiq ma'ruza paytida, gu-voh sudda, sevishganlar uchrashuv paytida o'z fikrini o'qib bersa, bu matn qanchalik mazmundor bo'lmasin ta'sirsiz bo'ladi. Ammo notiqning o'sha mazmunli ma'ruzasi matbuotda eolon qilinsa, uslub nuqtai nazaridan u ma'ruza paytida o'qib berilganidan ko'ra adresatga kuchliroq ta'sir etishi mumkin^[3]. Dialogik muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rni almashinib turadi va nisbatan qisqaligi, sintaktik jihatdan ixcham va soddaligi, kommunikantlar bilim va saviyasining umumiyligi bilan o'ziga xoslik kasb eta-di. Bunday muomalada



kommunikantlarning bir-birlariga bo'lgan munosabati, odob-axloqi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek muloqot xulqi me'yoriga ko'ra yoshi, ilmi va boshqa ijtimoiy belgilari suhbatdoshinikidan quyi bo'lgan kishilar dialogik muomalada lo'nda va qisqa gapirishlari talab etiladi.

Monologik nutqda so'zlovchi (yozuvchi) uzoq vaqt o'zining kommunikativ rolini tark etmaydi. Monologik va dialogik nutq turlari bo'yicha ko'p ishlar qilinganligi uchun bu haqda boshqa to'xtalmaymiz. Shaxslararo va ommaviy muloqotlarning eng muhim jihatlari shundaki, shaxslararo muloqotda faqat ikki kishi ishtirok etsa, ommaviy muloqotda bir kishi bir necha kishi yoki omma bilan bir xil fikr bildirganlari holda, ommaviy muloqot to'g'risida turlichalik fikrlarni o'rta ga tashlaydilar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi akademik M.K Nurmuxamedov taxriri ostida 1-tom,Toshkent Fan,1978,246-b
2. Mahmudov.N Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti,1985,6-son,29-b
3. S. Mo'minovning 'o'zbek muloqot xulqining ijtimoiy lisoniy xusisiyatlar "monografiyasi. Farg'onha, 2021-y-B63
4. Satvoldievna, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.
5. Satvoldievna, U. D. (2020). A typological analysis of body parts names in English as part of somatic phraseology. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 32-34.
6. qizi Shodieva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATEGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).
7. Usmanova, D., & Shodieva, G. N. K. (2022). ISSUES OF CLASSIFICATION OF WORD CATEGORIES IN THE UZBEK LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1276-1280.
8. Usmonova, D. (2022). TO STUDY THE IMPORTANCE OF TRANPOSITION OF WORD CATEGORIES IN ENGLISH. *O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 128-131.
9. Usmanova, D., & Shodieva, G. N. K. (2022). ISSUES OF CLASSIFICATION OF WORD CATEGORIES IN THE UZBEK LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1276-1280.
10. Ubaydullayeva, D., & Raxmonqulova, M. (2022). DEVELOPMENT OF SOCIAL DIRECTION IN LINGUISTICS. *Science and Innovation*, 1(6), 869-873.
11. <https://fayllar.org>.



12. <http://reja.tdpu.uz>

